

BADIIY ASARLARDA POLIFONIYA HODISASI VA UNING PRAGMATIK TAHLILI

Firuzabonu Bekmurodova

PhD, O'zMU

Toshkent, O'zbekiston

bekmurodovafiruza0306@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17192746>

Annotatsiya. Maqolada M.M. Baxtinning polifoniya nazariyasi asosida Fyodor Dostoyevskiyning *“Jinoyat va jazo”* romanidan olingan nutqiy parchalar tahlil qilindi. Raskolnikov, Porfiry, Svidrigaylov va Sonya nutqlaridan 4 ta misol keltirilib, ularning ruscha matni, o'zbekcha tarjimasi va pragmatik sharhlari berildi. Tahlil jarayonida polifoniya tushunchasining implikatura bilan bog'liqligi, shuningdek, tarjimada yashirin ma'nolarni ifodalash muammolari yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Dostoyevskiy romanidagi ko'p ovozlilik va yashirin semantika o'zbek tiliga o'girishda turli pragmatik va uslubiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: polifoniya, dialogizm, implikatura, pragmatika, badiiy tarjima.

Polifoniya nazariyasi adabiyotshunoslikda eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, u avvalo M.M.Baxtin nomi bilan uzviy bog'liq. Baxtin o'zining *“Problemy poetiki Dostoevskogo”* asarida Dostoyevskiy romanlarini ko'p ovoqli, ya'ni polifonik asarlar sifatida talqin qiladi. Monologik romanlarda muallif ovozi markaziy o'rinda bo'lsa, polifonik romanlarda qahramonlarning ovozi muallifnikidan kam emas, balki mustaqil, teng huquqli ovoz sifatida namoyon bo'ladi. Baxtinning fikricha, Dostoyevskiy romanida har bir qahramon *“o'z haqiqatining tashuvchisi”*dir va shu sababli muallif ularga o'z qarashlarini majburlab yuklamaydi.

Polifoniya nazariyasi, o'z navbatida, pragmatika bilan bevosita bog'liqdir. Chunki u nutqiy aktlarning ko'p qirraliligini, implikaturalarni, diskurs ichidagi yashirin ma'nolarni aniqlash imkonini beradi. Har bir qahramonning ovozi nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va axloqiy pozitsiyani ham ifodalaydi. Bu jihatdan Dostoyevskiy romanlari nutqiy-pragmatik hodisalar o'rganilishi uchun asosiy manbadir.

Shuningdek, M.M.Baxtinning dialogizm va polifoniya haqidagi qarashlari keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Yu. Kristeva Baxtinning dialogizm tushunchasini intertekstualizm nazariyasiga olib kiradi [Kristeva, 1972, b. 90]. Holquist va Emerson esa Baxtinning qarashlarini G'arb adabiyotshunosligiga yoyib, uning polifoniyani roman janrining asosiy xususiyati sifatida talqin qilganini ta'kidlaydilar [Holquist, 1990, p. 64–90; Emerson, 1997, p. 123–140]. Rus olimi V.I. Tyupa esa polifoniyaning poetik tabiatini tahlil qilib, uni *“subyektlarning erkin nutqiy maydondagi to'qnashuvi”* deb izohlaydi [Tyupa, 2002, s. 57–65].

Fikrimizcha, pragmatik nuqtai nazardan qaraganda, polifoniya implikaturalardan ajralmas holda namoyon bo'ladi. Qahramonlar nutqida yashirin ma'no qatlamlari mavjud bo'lib, ular ko'pincha bevosita aytilmagan, ammo kontekst orqali o'quvchiga yetkaziladigan g'oyalardan iboratdir. Demak, polifoniya va implikatura bir-birini to'ldiruvchi ikki fenomen bo'lib, ular badiiy matnning ko'p qavatli semantikasini shakllantiradi. Quyida Fyodor Dostoyevskiyning *“Jinoyat va jazo”* romanidan olingan nutqiy parchalar va ularning tahlili berilgan bo'lib, unda polifoniyaning pragmatik jihatlari ochib berilgan:

№	Ruscha parcha	O'zbekcha tarjima
1	«Разве я старушонку убил? Я себя убил, а не старушонку!» (Ч. 2, гл. 6)	“Axir men kampirni o'ldirdimmi? Men o'zimni o'ldirdim, kampirni emas!”
2	«Вы убили старуху?» – вдруг как бы случайно сказал Порфирий. (Ч. 4, гл. 5)	“Siz kampirni o'ldirdingizmi?” – dedi Porfiriyl go'yoki tasodifiy tarzda.
3	«Я тоже хотел бы попробовать жить... хоть чуть-чуть...» (Ч. 6, гл. 3)	“Men ham yashab ko'rishni istardim... hech bo'lmaganda biroz...”

1-parchada berilgan Raskolnikovning ichki monologi Dostoyevskiyning polifonik roman tuzilishidagi eng muhim nuqtalardan biridir. Raskolnikov jinoyat qilganidan keyin o'zini ikki xil shaxs sifatida ko'radi: jinoyatchi va qurbon. “*Men kampirni emas, o'zimni o'ldirdim*” degan jumlada asosiy dramatism shundaki, qotillik tashqi obyektga qaratilgandek tuyulsa-da, aslida u o'zining insoniyligini, axloqiy mohiyatini yo'q qilganini tan oladi. Bu Baxtin ta'kidlaganidek, ichki dialogning shakli, ya'ni inson o'z-o'zi bilan gaplashib, turli “ovozlar”ni yaratadi. Mazkur monologda yashirin implikatura mavjud bo'lib, Raskolnikov o'zini oqlamoqchi, lekin shu bilan birga o'zini halok qilganini ham anglaydi.

2-parchadagi Porfiriyl tergovchi sifatida oddiy rasmiy savol bermayapti. Uning “*Siz kampirni o'ldirdingizmi?*” degan jumlasini yuzaki qaraganda neytral savol bo'lsa-da, pragmatik jihatdan yashirin ayblovl, psixologik bosim, hatto provokatsiya vazifasini bajaradi. Bu savol tasodifiydek tuyuladi, lekin aslida Raskolnikovning ruhiy iztirobini yuzaga chiqarish uchun qilingan strategiya.

Bu yerda ikki xil ovoz mavjud bo'lib, qonun vakili sifatidagi Porfiriyl va psixolog sifatida gapirayotgan Porfiriyl. U bir vaqtning o'zida jinoyatning tashqi (huquqiy) va ichki (axloqiy) tomonlarini ochadi. “*Siz aybdorsiz*” degan yashirin ma'noni tashiydi, ya'ni Graysning “muloqot implikatura”si orqali qahramon ruhiyatiga ta'sir qiladi.

3-parchadagi “*Men ham yashab ko'rishni istardim...*” jumlasini yuzaki qaraganda hayotga intilishdek ko'rinadi, lekin unda yashirin o'lim istagi mavjud. Svidrigaylov hayot va o'lim o'rtasidagi chegara holatini his qilmoqda. Bu so'zlar uning ruhiy iztiroblari, ichki bo'shlig'i va ekzistensial yolg'izligini ochadi.

Makur parchada ikki qarama-qarshi ovoz eshitiladi: biri hayotdan umid qilayotgan odamniki, ikkinchisi esa o'limni tan olgan odamniki. Dostoyevskiy qahramonning ruhiy ikkilanishini ikki ovoz sifatida ko'rsatadi. Jumla oxiridagi “*hech bo'lmaganda biroz*” degan qism yashirin implikaturalarni yuzaga chiqaradi – u umrining oxirini yaqin his qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Dostoyevskiyning “*Jinoyat va jazo*” romani M.M. Baxtin tomonidan ishlab chiqilgan polifoniya konsepsiyasining mukammal namunasidir. Qahramonlar nutqidagi ko'p ovozlilik nafaqat estetik funktsiya bajaradi, balki pragmatik ma'no qatlamlarini ham yuzaga keltiradi. Polifoniyaning bunday shaklda namoyon bo'lishi implikaturalarning faol ishlatilishi bilan uzviy bog'liqdir. Qahramonlarning nutqida yashirin ma'no, kinoya, psixologik bosim va diniy intertekstual xabarlar o'quvchidan qo'shimcha talqin

talab qiladi. Bu esa roman semantikasini ochishda muloqot implikaturasi va diskursiv strategiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Советская наука, 1963. – С. 25–28.
2. Достоевский Ф.М. Преступление и наказание. – Москва: Художественная литература, 1972. – Ч.1–6.
3. Emerson C. The First Hundred Years of Mikhail Bakhtin. – Princeton: Princeton University Press, 1997. – P. 123–140.
4. Кристева Ю. Слово, диалог и роман // Вопросы литературы. – 1972. – №6. – С. 85–107.
5. Holquist M. Dialogism: Bakhtin and His World. – London: Routledge, 1990. – P. 64–90.
6. Тюпа В.И. Поэтика полифонии: опыты интерпретации. – Москва: Языки славянской культуры, 2002. – С. 57–65.
7. Clark K., Holquist M. Mikhail Bakhtin. – Cambridge: Harvard University Press, 1984. – P. 299–312.